



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI VETERINARIYA VA CHORVACHILIKNI
RIVOJLANTIRISH QO'MITASI**

**SAMARQAND DAVLAT VETERINARIYA MEDITSINASI,
CHORVACHILIK VA BIOTEXNOLOGIYALAR UNIVERSITETI NUKUS
FILIALI**

**"VETERINARIYA MEDITSINASI VA CHORVACHILIKDAGI DOLZARB
MUAMMOLAR VA ULARNING YECHIMLARI" mavzusidagi xalqaro
ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari**

TO'PLAMI

13-noyabr 2025-yil

СБОРНИК материалов

**международной научно и научно-технической конференции на тему
"АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ВЕТЕРИНАРНОЙ МЕДИЦИНЫ И
ЖИВОТНОВОДСТВА И ИХ РЕШЕНИЯ"**

13 ноября, 2025 г

**International scientific and scientific-technical conference
"ACTUAL PROBLEMS OF VETERINARY MEDICINE AND LIVESTOCK
AND THEIR SOLUTIONS"**

November 13, 2025

NUKUS-2025

“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”
Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari [Matn]: to‘plam / Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali. – Nukus: “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025. – 389 b.

Anjuman tashkiliy qo‘mitasi

Tashkiliy qo‘mita raisi: Esimbetov Adilbay Tlepovich, b.f.d., professor;

Tashkiliy qo‘mita raisi muovini: Avezimbetov Shavkat Dosumbetovich, v.f.n.;

Tashkiliy qo‘mita kotibi: Rozumbetov Kenjabek Umar og‘li, b.f.f.d.;

D. Bazarbayeva – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida katta o‘qituvchisi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

Tashkiliy qo‘mita a‘zolari:

Sh. Jabbarov – O‘zbekiston Respublikasi Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari, veterinariya fanlari doktori, professor.

X. Yunusov – Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti rektori, biologiya fanlari doktori, professor.

M. Y. Karpuxin – Ural davlat agrar universitetining ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, agrar fanlar doktori, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

N. G. Malkov – N. F. Vereshagin nomidagi Vologda davlat sutchilik akademiyasi rektori, texnika fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi)

A. Abdurasulov – Qirg‘iziston Respublikasi O‘sh davlat universiteti “Veterinariya meditsinasi va biotexnologiyasi” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, professor. (Qirg‘iziston Respublikasi)

R. Miqtibayeva – Qozog‘iston milliy agrar tadqiqot universiteti “Mikrobiologiya va virusologiya” kafedrasida professori, veterinariya fanlari nomzodi. (Qozog‘iston Respublikasi)

S. Mirzakulov – Olmaota texnologiya universiteti “Oziq-ovqat mahsulotlari texnologiyasi” kafedrasida professori, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent. (Qozog‘iston Respublikasi)

Q. Atanazarov – O‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari, biologiya fanlari nomzodi, dotsent.

A. Mambetnazarov – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i, qishloq xo‘jalik fanlar doktori, dotsent.

A. Kaniyazov – “Veterinariya va zootexnologiya” fakulteti dekani, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

X. Mamatov – “Zootexnologiya” kafedrasida mudiri, qishloq xo‘jalik fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

R. Turg‘anbayev – “Zootexnologiya” kafedrasida professori, agrar fanlar doktori

A. Kamalova – “Veterinariya meditsinasi va farmakologiyasi” kafedrasida mudiri, veterinariya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD).

P. Xojalepesov – “Iqtisodiyot va gumanitar fanlar” kafedrasida mudiri, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent.

R. Rzaev – “Veterinariya diagnostikasi va oziq-ovqat xavfsizligi” kafedrasida mudiri, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Ushbu to‘plam O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 27-dekabrda 490-son buyrug‘i bilan oliy ta‘lim tashkilotlari hamda ilmiy tashkilotlarda 2025-yilda o‘tkaziladigan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpoziumlar, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxati 2-ilovasiga muvofiq tasdiqlangan – 2025-yilda xalqaro miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi asosida Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filialida 2025-yil 13-noyabr kuni – **“Veterinariya meditsinasi va chorvachilikdagi dolzarb muammolar va ularning yechimlari”** mavzusida o‘tkazilgan Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiyasi materiallari asosida tuzilgan.

Konferensiyada, veterinariya sohasida faoliyat olib borayotgan universitet va filialarning professor-o‘qituvchilari, ilmiy markazlarning va insitutlarning ilmiy xodimlari, doktorantlar, magistrantlar, iqtidorli yosh tadqiqotchilarning ilmiy-tadqiqot ishlariga bag‘ishlangan maqolalar o‘rin olgan

To‘plamga kiritilgan maqolalar materiallarining to‘g‘riligi va haqqoniyligiga mualliflar mas‘ul hisoblanadi.

© Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Nukus filiali, 2025

© “Golden Print Nukus” nashriyoti, 2025

QORAMOLLAR BOVIKOLEZI VA INTENS ZARARLANISH DARAJASI

Pulotov F.S., Gaypnazarov S.B.

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti
Nukus filiali*

Kirish. So'nggi yillarda chorvachilikni intensivlashtirish va qoramollarni yopiq joylarda saqlash parazitlar kasalliklarning, xususan, entomozlarning ko'payishiga sabab bo'lmoqda. Bular orasida bovikolez (*Bovicola bovis*) — qoramollarda eng ko'p uchraydigan ektoparazitlar kasalliklaridan biridir. *Bovicola bovis* — tanasi uzunligi 1–1,5 mm bo'lgan, sariq-jigarrang rangli, qanotsiz parazit bo'lib, hayvon tanasida butun umr yashaydi. U asosan dum ildizi, yelka, bel va bosh qismida joylashadi hamda epidermis hujayralari, yog' bezlari ajratmalari bilan oziqlanadi. Kuchli invaziya holatlarida hayvonlarda qichishish, bezovtalik, sut miqdorining kamayishi va iqtisodiy zarar kuzatiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Nukus tumanida joylashgan turli xo'jalik turlarida qoramollarda bovikolezning tarqalish darajasi va invaziya ko'rsatkichlarini aniqlashdir.

Materiallar va usullar: Tadqiqotlar Nukus tumani hududidagi chorvachilik xo'jaliklari va aholi xonadonlaridagi qoramollarda o'tkazildi.

Tekshiruv ob'ekti: 90 bosh qoramol (qoramolshilik xo'jaligidan) va 40 bosh qoramol (xususiy xo'jaliklardan).

Tahlil usuli: Har bir hayvonning bosh, yelka, bel va dum ildizi sohalaridan 100 sm² maydonli 4 ta tapografik joydan parazitlar yig'ildi.

Zararlanish darajasi: D.I. Blagoveshenskiy tasnifiga ko'ra baholandi:

10 tagacha — past,

100 tagacha — o'rtacha,

1000 tagacha — yuqori,

1000 tadan ortiq — juda yuqori.

Topilgan parazitlar mikroskop ostida aniqlanib, *Bovicola bovis* turiga mansubligi tasdiqlandi.

Natijalar: Qoramolshilik xo'jaligida tekshirilgan jami 90 bosh qoramoldan 15 tasi *Bovicola bovis* bilan zararlangan (invaziya ekstensivligi 16,5 %) лиги ва инвазия интенсивлиги 7 tadan 25 tagacha parazitni tashkil etib, past va o'rtacha darajada intens zararlanish deb baholandi.

Aholi xonadonlarida tekshirilgan jami 40 bosh qoramoldan 18 tasi zararlangan (EI = 46.4 %). Har bir hayvonda 9 tadan 16 tagacha parazit aniqlanib, past darajadagi invaziya qayd etildi. Kasallik belgilari amalda sezilmagan, ya'ni bovikolez ko'pchilik hollarda yashirin (asimptomatik) shaklda kechgan. Olingan natijalar bovikolezning qoramollar orasida keng tarqalganini, ammo asosan past invaziya darajasida kechishini ko'rsatdi.

Kasallikning mavsumiyligi yaqqol ifodalanadi:

qish va bahor fasllarida invaziyaning intensivlik va ekstensivlik darajasi ortadi,

yoz davrida esa quyosh nuri va haroratning oshishi natijasida invaziyaning intensivlik va ekstensivlik darajasi kamayadi.

Bovikolalar hayvonlar orasida to'g'ridan-to'g'ri aloqa yoki parvarish buyumlari (cho'tka, mato, asboblar) orqali yuqadi. Kuchli invaziya paytida hayvonlar bezovta bo'ladi, qichishish, tirnash va jun to'kilishi kuzatiladi, bu esa sut ishlab chiqarishning kamayishi va iqtisodiy zararga olib keladi. Бовиколалар тери yuzasida harakatlanib, jag'lari yordamida epidermis hujayralarini kemirib yeydi, natijada:

teri shikastlanadi,

nerv uchlari qo'zg'aladi,

kuchli qichishish paydo bo'ladi.

Bovikolalarning so'lagi hayvon organizmi uchun toksik xususiyatga ega bo'lib, qon ivishini to'xtatadi. Kuchli invaziya holatlarida hayvonlar bezovta bo'ladi, o'z tanasini yalaydi yoki

devorga ishqalaydi, natijada jun to'kilishi (alopesiya) va tiralishlar paydo bo'ladi. Bemor sigirlarning sut mahsuldorligi pasayadi, buzoqlarda esa tirik vazn o'sishi sustlashadi. Ba'zi adabiyotlarda stelnaya sigirlarda (homilador sigirlarda) abort holatlari qayd etilgan.

Xulosa. 1. Nukus tumanida joylashgan chorvashilik xojaliklarida tekshirilgan jami 90 bosh qoramolning 16,5, aholi qaramog'idagi tekshirilgan 40 bosh qoramolning 46,4 foizida bovikolez kasalligi keng tarqalganligi aniqlandi. 2. Bovikolez bilan kasallangan chorvashilik xojaliklaridagi qoramollarda invaziya intensivligi 7- 25 nusxagacha aholi xonadanlaridagi qoramollarda 9-16 nusxagacha ushrashi, yani past va o'rtacha darajada intensiv zararlanish darajasi kuzatildi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Агринский, Н.И. Насекомые и клещи, вредящие сельскохозяйственным животным / Н.И. Агринский. — М.: Сельхоз лит., журналов и плакатов, 1962. — 285 с.
2. Акбаев, М.Ш. Паразитология и инвазионные болезни животных / М.Ш. Акбаев, Ф.И. Василевич, Р.М. Акбаев и др. — М.: Колосс, 2008. — 750 с.
3. Артамонов, С.Д. Насекомые и клещи Дальнего Востока, имеющие медико-ветеринарное значение / С.Д. Артамонов, Ю.Д. Бодрова, В.М. Глухова. — Л.: Наука, 1987. — 225с.
4. Благовещенский, Д.И. Пухоеды (Mallophaga) фауны СССР / Д.И. Благовещенский: автореф. дис... докт. биол. наук. — Л.: Зоологический институт АН СССР. 1953. — 21 с.
5. Djalolov, A. A., F. S. Pulotov va A. Sh Ismoilov. "Bovicola ovisga qarshi bioinsektitsidning insektitsid xususiyati." *Tarix va ijtimoiy fanlarni o'rganish bo'yicha Evropa jurnali* 1.7 (2024): 159-163.
6. Pulotov, F. S., et al. "Bovikolyoz bilan kasallangan echkilar qonidagi gematologik o'zgarishlar." (2025): 5-8.
7. Gaypnazarov, S. B., and F. S. Pulotov. "Qoraqaolpog'ston hududidagi qoramollarda junxo'rlarning tarqalishi." (2025): 179-182.
8. Gaypnazarov, S. va F.S. Pulotov. "Qaramal junxorlari fenologiyasi (A'debiyat mag'lwmatlari tahlili). *Yangi O'zbekiston ustozlari* 2.29 (2024): 78-81.
9. Gaypnazarov, S.B., Pulotov F.S. "Qoramollar bovikolyozi: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15359886>." *Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya* . jild. 1. No 2. 2025 yil.
10. Elmurodov, BA va boshqalar. "Alfa-shakti paylashtirishning chinlar va patorlarga qarshi insektitsid ta'siri". *Web of Teachers: Inderscience Research* 2.3 (2024): 250-256.
11. Shavkat, A., Kural, A., & Gayratdin, O. (2025). ORGANIZATIONAL SYSTEM OF PERSONNEL POLICY AIMED AT IMPROVING THE QUALITY OF EDUCATION IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS. *Advanced methods of ensuring the quality of education: problems and solutions*, 2(4), 98-102.
12. Shavkat, A. va Kural, A. (2025). OLIY TA'LIM MASSASALARIDA TA'LIM SIFATI VA TA'LIM QIMMATINI ORTALASH UCHUN TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TASHKILLASH. *Ta'lim sifatini ta'minlashning ilg'or usullari: muammolar va echimlar* , 2 (4), 85-88.